



UMUMTA`LIM MAKTABLARINI 8-SINF GEOGRAFIYA DARSLARIDA
“TRANSPORT GEOGRAFIYASI” MAVZUSINI O`QITISHDA KO`RGAZMALI
QUROLLARDAN FOYDALANISH

F.S.Meliboyeva

QDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası

katta o`qituvchisi

G.F.Jaxongirova

Sh.Q.Ergashboyeva

talaba

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta`lim maktablarining 8 sinf geografiya darslarida “Transport geografiyasi” mavzusini o`qitishda ko`rgazmali qurollardan hamda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati to`g`risida ma`lumotlar izohlangan.*

Kalit so`zlar: *ko`rgazmali qurollar, axborot texnologiyalari, namoyish qilish, jadvallar*

Har bir o`qituvchi faoliyatida eng mas`uliyatli davr boshlandi. “Ta`lim to`g`risida” gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ro`yobga chiqarish sifat ko`rsatkichi bosqichiga kirdi. Yangi o`quv rejasi, dasturi, yangi avlod darsliklari, ta`lim standartlari yaratilib, o`qituvchilar va maktab ixtiyoriga taqdim etildi. Ularning o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilishi va mustaqil fikr yuritishlariga undashi bevosita o`qituvchi faoliyatiga bog`liqdir. Yangi ta`lim standartlarini o`zlashtirish kafolati yangicha zamonaviy texnologiya asosida ish yuritishni talab etadi.

Tabiiy fanlarni o`rganishda dars o`tish metodlarigina emas, dars jarayonida foydalaniladigan namoyish etiluvchi materiallaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Ko`rgazmali qurollar yordamida bir vaqtning o`zida muhokama qilinayotgan savolni, axborotni ham eshitish ham ko`rish orqali qabul qilish o`quvchilarni mukammal bilim olishlariga yordam beradi.

Ko`rgazmali qurollar xilma-xil bo`lib, ko`rgazmalilik, odatda, xayolan ko`z o`ngiga keltirish bilan yoki namoyish qilish bilan ta`minlanadi. Ko`rgazmalilik metodi: tasviriy, o`quv materiallarini namoyish qilish, ramziy va sxematik-tasviriy materiallar, xaritalar, chizmalar, diagrammalar va hokazo.

Zamonaviy o`quv jarayonini bularsiz tasavvur qilish qiyin. Asosiy qulaylik shundaki, ulardan istagan paytda foydalanish, ish o`rni o`zgarganda oson ko`chirish mumkin.

Ayniqsa, “Transport geografiyasi” mavzusini o`qitishda POWER POINT dasturi mehnatni yengillashtiradi va transport turlarini turli-tuman tarzda tasvirlash imkonini beradi. Darsni ko`ngildagidek o`tishda ko`rgazmali materialni qanday namoyish qilish ham katta ahamiyatga ega.

Namoyish qilish jarayonida:




- hamma o`quvchilar namoyish qilinayotgan obyektни ko`rishlari, iloji boricha faqat ko`rish emas, sezish organlari bilan his qilishlari kerak;
- obyektning muhim, asosiy tomonlari talabalarda katta taassurot qoldirishi, maksimum darajada diqqatlarini jalb qilishi kerak;
- o`rganilayotgan obyektни sifatini mustaqil ravishda o`lchash imkoniyatini ta`minlash kerak.

Umumta`lim maktablarini 8-sinf geografiya darslarida “Transport geografiyasi” mavzusini o`qitilishida ko`rgazmali qurollarni hamma turidan foydalanish mumkin. Umumta`lim maktablarini 5-9 sinflarini uchun o`quv atlaslari joriy qilingan. Geografiya fanini asosiy quroli-xarita, atlas va globus hisoblanadi. Transport mavzusini o`qitilishida xarita dastlabki ko`rgazmali qurol hisoblanib, bu xarita orqali o`quvchilar o`qituvchi tomonidan berilgan ma`lumotni ham eshitish orqali qabul qiladi. Bundan tashqari jadval va diagrammalar ham mavzuni o`qitilishida katta ahamiyatga ega. O`zbekistondagi transport turlari, ularning uzunligi va yuk tashish xajmini jadval ko`rinishiga keltirilsa o`quvchilar qabul qilishi yengillashadi.

<u>№</u>	<u>Transport turlari</u>	<u>Transport yo`llarining umumiy uzunligi</u>	<u>Tashiladigan yuk miqdori</u>
1	<u>Temir yo`l transporti</u>		
2	<u>Avtomobil transporti</u>		
3	<u>Quvur transporti</u>		
4	<u>Havo transporti</u>		
5	<u>Suv transporti</u>		

Ushbu jadval orqali o`quvchilar transport turlari bilib, transport yo`llarini umumiy uzunligini va ushbu transport turida tashiladigan yuk miqdorini jadvalni 2-3 ustunlariga o`zlari javob topib to`ldirishlari mumkin.

Sxema, plakatlarni tayyorlash moddiy jihatdan qimmat hamda ko`p vaqtni talab qilishi mumkin. Xato qilinsa, o`zgartirish qiyin. Shuning uchun hozirgi vaqtda vatmanga chizilgan yoki plakat holda nashr etilgan ko`rgazmali qurollar o`rniga yangi, tayyorlash va foydalanishni qulay va zamonaviy turlari, ayniqsa, dars jarayonida slaydlardan foydalanish ijobiy samara beradi. Slaydlar ta`lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi.



O'zbekiston Respublikasi transporti temir yo'l, avtomobil, havo transporti, quvurlar va daryo transportini o'z ichiga oladi.

Turli xil yuklar va yo'lovchilarni tashishda temir yo'l transporti etakchi o'rinni egallaydi



Mamlakatimizda tashiladigan yuklarning 90% ana shu transport zimmasiga tushadi.

Respublikamiz hududlarini bir-biri bilan bog'lab turibgina qolmay, o'z doirasidan tashqarida bo'lgan hududlar bilan bog'lanadigan temir yo'l tarmoqlari qurilgan va ishga tushirilgan



XX asr boshlarida respublika temir yo'llarining umumiy uzunligi 1589 km.ni tashkil etgan bo'lsa, endilikda u 6700 km.ga etdi.



O'zbekiston temir yo'llarining uzunligi bo'yicha qo'shni respublikalar: Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlarini orqada qoldiradi va maydoni katta bo'lgan Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ko'rgazmali qurollarning afzalligi- uni dars o'tishning barcha shakllari, uslublarida qo'llash mumkin. Umumta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitilishini namoyish qiladigan materiallarsiz, ko'rgazmali qurollarsiz o'tib bo'lmaydi. Darsni tashkil etishda ko'rgazmali qurollar muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бердиев, Файратжон Хасанбоевич, and Феруза Солижонова Мелибоева. "СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТРАНСЧЕГАРАВИЙ МУАММОЛАРИ." Интернаука 10-4 (2017): 29-31.



2. Мелибоева, Феруза Солижоновна, and Ғайратжон Хасанбоевич Бердиев. "СУВ ТАҚЧИЛЛИГИДА СУҒОРИШ УЧУН ОҚАВА СУВИДАН ФОЙЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИНИ БАХОЛАШ." *Интернаука 10-4* (2017): 31-34.
3. Мелибоева, Феруза Солижоновна. "ФАРҒОНА ВОДИЙСИ СУВ РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ." *Интернаука 10-4* (2017): 34-36.
4. Мелибаева, Феруза Солижановна, and Баходир Асамович Камалов. "Оценка возможности использования канализационных сточных вод для орошения при нехватке оросительной воды." *Europäische Fachhochschule 1* (2016): 3-6.
5. Мелибаева, Ф. С. "Распространение инфекционных заболеваний в кишлаках юго-западной части Дангаринского района Ферганской области." *Материалы республиканской конференции "Актуальные вопросы охраны окружающей среды Узбекистана"*. Самарканд. 2013.
6. Meliboeva, F. S. "GEOGRAPHICAL FEATURES OF MANUFACTURING AND HUMAN HEALTH." *Экономика и социум 2-1* (93) (2022): 73-76.
7. Meliboeva, F. S. "MANUFACTURING IMPACT ASSESSMENT ON HUMAN HEALTH." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 3.12* (2023): 113-115.
8. Meliboeva, F. S. "DISEASES CAUSED BY ENVIRONMENTAL POLLUTION IN THE KOKAND OASIS." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 3.12* (2023): 116-119.